

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADJONOV ILHOMJON TOHIRJON O‘G‘LI**

**OT SHAKLLARINI HOSIL QILUVCHI AFFIKSLARNING  
SEMANTIK-USLUBIY TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological sciences**

**Содержание автореферата диссертации доктора философских (PhD) по  
филологическим наукам**

**Ahmadjonov Ilhomjon Tohirjon o‘g‘li**

Ot shakllarini hosil qiluvchi affikslarning semantik-uslubiy tadqiqi.....3

**Ahmadjonov Ilhomjon Tohirjon ugli**

Semantic-stylistical study of affixes forming noun forms.....27

**Ахмаджонов Илхомжон Тохиржон угли**

Семантико-стилистическое исследование аффиксов, образующих формы существительных.....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....59

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADJONOV ILHOMJON TOHIRJON O‘G‘LI**

**OT SHAKLLARINI HOSIL QILUVCHI AFFIKSLARNING  
SEMANTIK-USLUBIY TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil.3255 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

**Mamajonov Alijon**  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

**Nabiyeva Dilora Abdulhamidovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Mirzaqulov Tursunali O'tayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "28 dekabr" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. tel: (873) 244-66-02; faks: (873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (320 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "16 dekabr" da tarqatildi. (2023-yil "16 dekabr" dagi 34 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.M.Iskandarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

**T.M.Zokirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, f.f.n., professor

**N.M.Uluqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** XX asr boshlarida jahon tilshunosligida shakllangan sistem-struktur tadqiq yoʻnalishi fanning eng ilgʻor anʼanalarini rivojlantirish bilan birga, uni yangi gʻoyalar bilan ham boyitdi. Jumladan, morfem birliklarning boshqa til birliklaridagi kabi semantik jihatdan umumiy va xususiy belgilarini aniqlash, ularning nutq ulublaridagi morfosemantik xususiyatlarini yoritish, muayyan darajada mazkur yoʻnalishga doir amaliy masalalarni toʻgʻri hal etish oʻzbek tilshunosligida muhim izlanishlardan biriga aylandi.

Jahon tilshunosligida til birliklari tadqiqi til va nutq hodisasi nuqtayi nazaridan amalga oshirilmoqda. Bu esa nazariy jihatdan til birliklariga toʻgʻri baho berish, ularning oʻziga xos jihatlarini toʻlaqonli anglashga yordam beradi. Tilshunoslikka Boduen de Kurtene tomonidan olib kirilgan morfem birliklarning ham til va nutq doirasida oʻrganilishi uning mohiyatini aniqroq yoritish va izohlashga turtki boʻldi. Til birligi boʻlgan morfema oʻzining semantik jihatdan rang-barangligi, uslubiy erkinligi, soʻzlovchi nutqida turlicha jilolanishi kabi nutqiy xususiyatlarni namoyon qiladi. Bu kabi jihatlarining nazariy tomondan tadqiq qilinishi natijasida morfemalarning turli nutqiy holatlari aniqlanib, mavjud qarashlarning boyishiga olib keldi.

Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonida tilimizning qoʻllanish koʻlamini har tomonlama kengaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, “oʻzbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy maʼlumotlarni oʻzida jamlagan elektron koʻrinishdagi oʻzbek tili milliy korpusini yaratish choralarini koʻrish”<sup>1</sup> masalasi dolzarb boʻlib turibdi. Bu esa, oʻz navbatida, oʻzbek tilshunosligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga jahon tilshunosligi modelida oʻzbek tilining ifoda imkoniyatlarini yoritib berish vazifasini yuklaydi. Til sistemalari shakllanishi bilan bogʻliq hodisalarning mohiyatini toʻgʻri va aniq yoritishda til birliklari, ularning mohiyati masalasida aniq xulosaga kelish, yorqin tasavvurga ega boʻlish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu maqsadga erishmay turib, yaʼni maʼno va vazifasiga koʻra til birliklarining bir-biridan farqli tomonlarini, har bir turga mansub birliklarning umumiy mohiyatini aniq belgilamay turib til tizimining shakllanishi bilan bogʻliq hodisalar mohiyatini toʻgʻri yoritish mumkin emas. Morfemalarning tildagi maqomini belgilash, ularning semantik-uslubiy tomonlarini ochib berish muhim vazifalardan sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari toʻgʻrisida”gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlimni yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi va

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6084-сонли Фармони (“Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 21 октябрь).

2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyada bildirilgan fikr-mulohazalar ma‘lum darajada manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

#### **Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

“Morfema” termini va tushunchasi tilshunoslikka dastlab Boduen de Kurtene tomonidan olib kirilgan. Ammo mazkur termin ostidagi birliklar haqidagi talqinlar qadimgi hind grammatikachilarining nazariy qarashlarida mavjud edi<sup>2</sup>. Bu borada Aristotel, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning morfema atamasi ostida baholanuvchi birliklar yuzasidan bildirgan fikrlari ahamiyatga molikdir.

Morfema atamasi ilk bor 1868-yilda qo‘llangan bo‘lib<sup>3</sup>, keyinroq V.A.Bogorodiskiy, A.N.Gvozdev, A.I.Tomson, J.Vandriyes, J.Maruzo, E.B.Agayan, M.D.Fridman, A.I.Smirniskiy, N.M.Shanskiy, I.I.Meshchaninov<sup>4</sup> kabi olimlarning nazariy qarashlarida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilshunosligiga morfema terminining kirib kelishida A.G‘ulomovning xizmatlari katta<sup>5</sup>. Soha taraqqiyotida A.Hojiyev, A.Berdaliyev, A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev, H.Ne‘matov<sup>6</sup> kabi olimlarning nazariy qarashlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Keyinroq tilshunoslikda morfemalarning lisoniy xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar yuzaga kela boshladi. Morfemalarning sinonimiyasi (Y.Tojiyev<sup>7</sup>), omonimiyasi (M.Jo‘rabojeva<sup>8</sup>), polifunksionalligi (N.Qodirova<sup>9</sup>), paradigmatic va sintagmatic munosabati (T.Mirzaqulov<sup>10</sup>)ga doir tadqiqotlar shular jumlasidandir. Shunga qaramay, morfema terminining tildagi maqomi va mohiyatini, ma‘lum bir turkumdagi morfemalarning semantik va uslubiy jihatlarini izchil va atroflicha o‘rganish talab etiladi.

<sup>2</sup> Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Часть I. – М., 1960. – Б.8.

<sup>3</sup> Бодуен де Куртене. Einige fdlle der Werkund der analogie in der polnischen declination. – 1963. <https://de/scribd.com>. 21.06.2023. 18:13.

<sup>4</sup> Богородицкий В.А. Лекции по общему языковедению. Изд.2-е. – Казан, 1915; Томсон А.И. Общее языковедение. – Одесса, 1910; Вандриес Ж. Язык. – М., 1937; Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М., 1960; Агаян Е.Б. Введение в языкознание. – Ереван, 1959; Фридман М.Д. О морфемном характере артикля. ВЯ 5. – 1962; Смирницкий А.И. К вопросу о слове // Сб. Вопросы теории и истории языка. – М., 1952; Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. – М., 1959; Мещанинов И.И. Общее языкознание. – 1940.

<sup>5</sup> Гуломов А. А.Гуломовнинг илмий мероси (3 китоб). – Тошкент, 2007.

<sup>6</sup> Не‘матов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

<sup>7</sup> Тожиев Ё. Ҳозирги ўзбек тилида эгалик ва эга эмаслик маъносини ифодаловчи сўз ясовчи аффикслар синонимияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1974; Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1992.

<sup>8</sup> Жўрабоева М. Ўзбек тилида аффиксал омонимия: Филол. фан. номз.дисс...автореф – Т., 1975.

<sup>9</sup> Қодирова Н. Ўзбек тилидаги аффиксларда полифункционаллик: Филол. фан. номз. дисс... автореф – Т., 2002.

<sup>10</sup> Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1994.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Hozirgi o'zbek tilining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi o'zbek tilidagi ot shakllarini hosil qiluvchi affikslarning semantik- uslubiy xususiyatlarini yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

tilshunoslikda morfema masalasiga oid qarashlarni jamlash va uning asl mohiyatini aniqlash;

morfemalarning boshqa til birliklaridan farqini ochib berish;

ot turkumiga xos kategorial va nokategorial shakllarning umumiy va xususiy semantikasini misollar yordamida dalillash;

ot turkumiga xos kategorial va nokategorial shakllarning nutq uslublaridagi ko'rinishlarini lisoniy dalillar bilan isbotlash;

ot turkumidagi derivatsion morfemalarning semantik va uslubiy jihatlarini yoritish;

kelishik shakllarining bir mazmuniy maydonda birlasha olishi va ularning boshqa birliklar bilan semantik uyg'unlik kasb etishini dalillash;

**Tadqiqot obyekti** sifatida o'zbek tilidagi morfem birliklar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** mavjud nutq uslublarida qo'llanuvchi ot turkumiga xos morfemalarning semantik va uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda komponent tahlil, tavsiflash, tasniflash, stilistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

morfemalar so'zlovchi tomonidan subyektiv munosabatlarni ifodalashda muhim vositalardan sanalishi, nutq vaziyatidan kelib chiqib *hurmat, erkalash, kesatiq, piching, nazarga ilmaslik* kabi emotsional ma'nolarni ifodalovchi lisoniy birlik ekanligi dalillangan;

ot turkumiga mansub kategorial va nokategorial affikslarning so'zlashuv, badiiy, publitsistik, rasmiy hamda ilmiy uslubga xoslangan shakllari mavjudligi, bir affiksning kategorial va nokategorial ma'nolari bo'lishi, ya'ni *-lar* shaklining son ma'nosi kategorial *ma'no, taxmin, hurmat, kesatiq, kuchaytirish* kabi ma'nolarni ifodalashi nogategorial ma'no tomon siljishidan dalolat berishi isbotlangan;

morfema – fonema, leksema, frazema kabi mustaqil til birligi. Ular inson ongida ma'lum paradigmalarda morfemik tizim ko'rinishida saqlanadi. Har bir shaxs bulardan foydalanish imkoniyatiga ega, biroq morfemalar nutqiy vaziyat, nutq subyektlari yoshi va mahoratiga bog'liq holda o'ziga xos nutqiy xususiyatlarini namoyon etish imkoni mavjudligi misollar orqali ko'rsatilgan;

ot turkumidagi so'z yasovchi affikslar o'z ichida vazifa jihatidan bir xil bo'lsa-da, semalarning turlicha bo'lishi oqibatida omonimlikni hosil etishi, birgina affiksda shaxs, narsa, o'rin, faoliyat-jarayon, mavhum ot yasash imkoniyati mavjudligi, morfemalarning sinonimlik va omonimlik holatlari semantikada muhim ahamiyat kasb etishi, kelishik shakllarining bir maydonda semantik tomondan birlashishi va har bir kelishik shaklining turli xil morfosemantik munosabatlarni ifodalay olishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ot turkumiga xos morfemik birliklarning barchasi jamlangan va ularning umumiy va xususiy semantikasi, omonimiyasi hamda sinonimiyasi tahlil qilingan;

morfemik tahlil uchun asos vazifasini bajaruvchi morfemalarning vazifasi, shakl va ma'no munosabati, ayrim morfemalarning o'ziga xos xususiyatlari, nutq uslublaridagi qo'llanish imkoniyatlari yoritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tanlangan misollar tahliliga diaxron va sinxron asosda yondashilganligi, foydalanilgan lingvistik metodlarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga izchil asoslanganligi, foydalanilgan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, nazariy fikrlar va ularga munosabat bildirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, morfemik birliklar tilda ma'lum vazifa bajarishdan tashqari, mustaqil qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, o'z semantikasi, nutq vaziyatiga qarab uslubiy xoslanishi, bir morfema har xil nutq uslublarida turlicha qo'llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi yo'nalishlarida hozirgi o'zbek tili, o'zbek tili tarixi, semasiologiya, uslubshunoslik, nazariy tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari bo'yicha ma'ruza va seminarlar, maxsus kurslarni ishlab chiqishda, tashkil etishda dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalari quyidagi loyiha doirasida foydalanilgan. Morfemik birliklarning semantik-uslubiy jihatlarini tadqiq etish asosida:

ot turkumiga xos morfem birliklarning semantik xususiyatlari, ot turkumidagi kategorial va nokategorial shakllarining har biri mazmuniy jihatdan guruhlariga ajratilishiga doir tahlil va xulosalardan 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi mukammal o'rgatish, bilish jarayonini qiyoslash orqali takomillashtirish, yoshlardagi ijodiy g'oyalar, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, lingvomadaniy dunyoqarashini takomillashtirish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda targ'ibot-tashviqot ishlari uchun ma'ruzalar tayyorlashda foydalanilgan (Yoshlar innovatsiya markazining 2022-yil 8-avgustdagi 04-36-1260-son ma'lumotnomasi). Natijada chora-tadbirlar rejasi va targ'ibot ma'ruzalari ilmiy asoslar va samarador tahliliy materiallar bilan boyitilgan;

an'anaviy tilshunoslikda polisemantik birlik sifatida baholanayotgan ot turkumiga mansub derevatsion morfemalarning semantik jihatdan turlicha bo'lishi, aslida, omonim morfemalar sirasiga kirishiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan "Matn tilshunosligi" darsligida keng foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023-yil 23-maydagi 01-2184-son ma'lumotnomasi). Natijada qiyoslash munosabatini ifodalovchi sintaktik birliklar xususiyatlari bo'yicha berilgan ilmiy ma'lumotlar darslikning ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashtirishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

ot turkumiga xos morfem birliklarning semantik xususiyatlari, ot turkumidagi kategorial va nokategorial shakllarining har biri mazmuniy jihatdan guruhlariga ajratilganligi, kelishik shakllarining bir maydonda semantik tomondan birlashishi va har bir kelishik shaklining turli xil mazmuniy munosabatlarni ifodalay olishiga oid ma'lumotlardan "Pragmalingvistika asoslari" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023-yil 23-maydagi 01-2183 son ma'lumotnomasi). Natijada darslik nazariy va amaliy jihatdan ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiyasi etilgan nashrlarda 3 ta maqola nashr etilgan. Ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 137 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Morfem birliklar tavsifi**" deb nomlanib, unda jahon va o'zbek tilshunosligidagi morfem birliklar haqidagi qarashlar, morfemaning asl mohiyatini yoritishga e'tibor qaratilgan.

Birinchi bobning birinchi fasli "**Tilshunoslikda morfemik ta'limotlar**" deb nomlanadi, unda morfema termini va uning mohiyati, mazkur termin ostidagi birliklar talqini yoritilgan.

Tilshunoslik fanining beshigi qadimgi Hindiston sanaladi. Chunki xuddi shu mamlakatda birinchi bor kishilarning aloqa vositasi bo'lgan tilni o'rganishga qiziqish yuzaga keldi<sup>11</sup>. Morfema masalasi ham hind tilshunoslari nazaridan chetda qolmagan. Albatta, ular bu birliklarga morfema termini ostida qarashmagan, lekin hozirgi morfem birliklar mavjudligini his qilishgan. "Qadimgi hind grammatikachilar so'zlarni birlamchi elementlarga bo'lganlar. So'zni bunday tahlil qilish "samskara" deb atalgan. So'zni birlamchi elementlarga ajratib tahlil qilish qadimgi hind grammatikasining asosiy tamoyilini tashkil qilgan"<sup>12</sup>. "So'z tahlilida so'z shaklining o'xshash va farqli belgilariga asoslandilar. Natijada bir so'zning turli

<sup>11</sup> Нурмонов. А. Танланган асарлар II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 7.

<sup>12</sup> Звегивцев. В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях, часть I том. – М, 1960, – Б. 8.

shakllarini, tarkibiy qismlarini to'g'ri belgilashga erishdilar. So'z tarkibidan o'zak, suffiks va qo'shimchalarni ajratdilar"<sup>13</sup>. Arastuning "Poetika"<sup>14</sup>, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"<sup>15</sup>, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn"<sup>16</sup> asarida morfemik birliklar haqida bir nechta fikrlar bayon etilgan.

"Morfema" termini va tushunchasi tilshunoslikka dastlab Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan. Olim morfemani morfologiyaning eng soddada birligi deya baholagan. "Morfemalar bu so'zning ayrim ma'noli qismlaridir. So'zning u yo bu ma'noli qismi morfema deyiladi", - deb ta'riflagan<sup>17</sup>. Olimning mazkur fikrlari morfema haqidagi qarashlarning paydo bo'lishiga, tilda muhim birlik sifatida maydonga chiqishiga sababchi bo'lgan. Boduen de Kurtenedan so'ng morfemaga turlicha yondashuvlar yuzaga kelgan.

Olimlarning morfema haqida turlicha fikrlari orqali morfemik qarashlarni uch guruhga bo'lish mumkin bo'ladi.

1. Birinchi guruh olimlarini mohiyatan Boduen de Kurtene fikrlarining mantiqiy davomchisi deya qarash.

2. Ikkinchi guruh olimlari morfema ostidagi birliklarni bir muncha kengaytirgan vakillar sinfi.

3. Uchinchi guruh olimlarini esa morfema qamrovini toraytirgan guruh deya nomlash.

Boduen de Kurtenening izdoshlari morfema so'zning ma'noli qismi, deya ta'rif berishgan, ya'ni morfemaga so'zning tarkibiy qismi nuqtayi nazaridan yondashishgan. Bunday fikrlar B.Kurtenedan tashqari, V.A.Bogorodiskiy, A.N.Gvozdev, E.B.Agayan, V.V.Vinogradov, I.V.Ustinov, O.P.Sunik, R.F.Shokirova<sup>18</sup> kabi tilshunos olimlar ishlarida ham kuzatiladi.

Ikkinchi guruh olimlari morfema atamasi ostidagi birliklar haqida birmuncha kengroq fikr bildiradilar. Morfemaning qamroviga so'zning asos qismi va grammatik shakllardan tashqari urg'u, ayrim unli tovushlar, hattoki so'zlarni ham kiritishgan. Bunday xulosaga kelish morfemaning eng kichik, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan ma'noli qism deya tushunish tufayli paydo bo'lgan. A.I.Tomson, N.M.Shanskiy, G.Glison kabi tilshunoslar ushbu fikr tarafdorlari sanaladi<sup>19</sup>.

Keyingi guruh olimlari morfemaga baho berib, faqat affikslarni morfema deb tushunadilar va izohlaydilar. Bu guruh olimlari morfemaga til birliklari masalasining mohiyatidan kelib chiqib yondashganlar. Leksik birlikdan morfemik birliklarning farqi borligiga e'tibor qaratganlar. Yuqoridagi boshqa guruh tilshunoslar so'z asosini ham morfema deb tushungan bo'lsalar, bular affikslarnigina morfema deb

<sup>13</sup> Нурмонов. А. Танланган асарлар II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012, – Б. 7.

<sup>14</sup> Аристотел. Поетика. – Тошкент, 1980, – Б. 40.

<sup>15</sup> Нурмонов. А. Танланган асарлар II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012, – Б. 231.

<sup>16</sup> А.Навоий. Муҳокамаат ул луғатайн. – Тошкент. 1948, – Б. 187.

<sup>17</sup> Бодуэн де Куртене. Лингвистические заметки и афоризмы... (журнал. Министерства народного просвещения, 1903, № 5. – Б. 12.

<sup>18</sup> Богородицкий. В.А. Лекции по общему языковедению, изд.2-е. – Казань, 1915, – Б. 155, Агаян. Е.Б.

Введение в языковедение. – Ереван. 1959, – Б.100, Виноградов. В.В. О формах слова. 1944, III том. – Б. 32.

<sup>19</sup> Шанский. Н.М. Очерки по русскому словообразованию и лексикалогии. – М, 1959, – Б. 45, Глисон. Г. Введение в дескриптивную лингвистику, Томсон. А.И. Общее языковедение. – Одесса. 1910, – Б. 311.

ataydilar. M.F.Fridman, I.I.Meshchanichov, A.P.Poseluyeskiy, R.A.Budagov kabi tilshunoslar mazkur fikrni qo‘llab-quvvatlab, o‘z ilmiy ishlarida bayon qilishgan<sup>20</sup>.

Dastlab, so‘zlarning tarkibiy qismlari morfologiya bo‘limida o‘rganib kelindi. Morfema tushunchasi o‘zbek tilshunosligiga A.G‘ulomov tomonidan olib kiritildi. “Morfema – so‘zning ma’noli qismi bo‘lib, u o‘z navbatida, yana ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. Masalan, *aqli* so‘zi ikki morfemadan tashkil topgan: *aql* va *-li*. *Aql* o‘zak morfema bo‘lib, so‘zning asosiy leksik ma’nosini ifodalaydi; *-li* morfemasi esa o‘zak morfema orqali ifodalangan belgi yoki predmetga egalik ma’nosini keltirib chiqaradi”<sup>21</sup>. A.G‘ulomovning ushbu fikrlari leksema va affikslarni birgalikda morfema deb tushunishga olib keladi. Mazkur fikr boshqa olimlar tomonidan yetakchi morfema va leksema terminlari masalasiga jiddiy yondashuvni talab qildi. Morfemaning til birliklaridagi o‘rni va maqomini belgilash muhim ahamiyat kasb etdi.

A.G‘ulomov<sup>22</sup>, Y.Tojiyev<sup>23</sup>, T.Mirzaqulov<sup>24</sup>, Q.Sapayev<sup>25</sup> kabi olimlar morfemalarning yetakchi va ko‘makchi turi mavjud deya baho bergan holda, morfemalarning qamrovini kengaytirishgan. Ular morfemaga yeng kichik ma’noli qism nuqtayi nazaridan yondashishgan.

A.Hojiyev<sup>26</sup>, Sh.Rahmatullayev<sup>27</sup>, A.Nurmonov<sup>28</sup>, R.Sayfullayevalar<sup>29</sup> morfema maqomini belgilashda til birliklariga putur yetkazmaslik kerak degan g‘oyani ustuvor sanagan tarzda yetakchi morfema terminidan voz kechish zarurligini bayon etishgan.

Morfem birliklarning paradigmatic va sintagmatic tarzda o‘rganilishi<sup>30</sup>, til birliklarini sistem-struktur tomondan tadqiq qilinishi yuqoridagi ba’zi mulohazali o‘rinlarni bartaraf etadi. Tilshunos olimlarning yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha fikrlari ikki ilmiy paradigma mavjud ekanligidan dalolat beradi. Birinchisida morfema an’anaviy yondashuvga asosan (verbosentrizm) so‘zning tarkibiy qismi sifatida baholanib, so‘zning eng kichik ma’noli qismi ekanligi e’tirof etiladi. Yana biri sistemaviy yondashuv asosida morfema so‘zdan tashqari, tilning eng kichik ma’no anglatuvchi mustaqil birligidir. Biz mazkur ilmiy qarashlardan morfema so‘z tarkibida emas, morfema til sistemasida tadqiq etilishini ma’qullaymiz. Tilshunos olim “so‘zlarning morfologik strukturasi, ya’ni ularning morfemalarga bo‘linishini o‘rganuvchi soha morfemika deb ataladi tarzidagi ta’rif o‘zbek tili grammatikasiga doir deyarli barcha darslik va qo‘llanmalarda uchraydi. Bunday tushunish aslida

---

<sup>20</sup> Будагов. Р.А. Введение в науку о языке. – М, 1958, – Б. 199, Поцелуевский. Л.П. Основы грамматики, – Ашхабад, 1946, – Б. 7, Мешчанинов. И.И. Общее языкознание. 1940, – Б. 32.

<sup>21</sup> Гуломов. А. А. Гуломовнинг илмий мероси. (3 китоб). — Т. 2007, — Б. 49.

<sup>22</sup> Гуломов. А. А. Гуломовнинг илмий мероси. (3 китоб). — Т. 2007, — Б. 49.

<sup>23</sup> Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент. 1992. – Б. 5.

<sup>24</sup> Мирзақулов. Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси. Фил.фан.док.дисс. – Тошкент. 1994 й

<sup>25</sup> Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya). –Toshkent. 2009, – Б. 15.

<sup>26</sup> Хожиев. А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010.

<sup>27</sup> Раҳматуллаев Ш. Семема-мустақил тил бирлиги // Ўзбек тили ва адабиёти, – Тошкент. 1984, №5

<sup>28</sup> Нурмонов. А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Академнашр. 2012.

<sup>29</sup> Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan. 2006.

<sup>30</sup> Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент. 1994.

morfemikaning mohiyatini yo‘qqa chiqaradi, bu an’anaviy morfologiyaning so‘z tarkibi haqidagi bo‘limini yangi nom bilan atashdan boshqa narsa emas”, deya ta’kidlaydi<sup>31</sup>. Bu fikrlar tilga sistemasi sifatida yondashuv natijasida yuzaga kelgan va morfemaning mohiyatini anglashda tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Til birliklari o‘zaro sintagmatik munosabatga kirishadi va o‘zidan katta birliklarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sintagmatik munosabat esa bir paradigmadagi birliklarning ketma-ket kelishini taqozo etadi. Tilning tizimlilik tabiatini hisobga olgan holda, bizningcha, morfema “o‘z ifoda va ma’no jihatiga ega bo‘lgan, so‘z yasash yoki so‘z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan, shakllantiruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan mustaqil lisoniy birlikdir. Uning leksik va grammatik turlari mavjud.

**“Morfemalar tasnifi va ular bilan bog‘liq muammolar”** deb nomlangan birinchi bobning ikkinchi faslida morfem birliklar tasnifi masalasiga e’tibor qaratilgan.

Asosiy morfema	Ko‘makchi morfema				
	Sintetik morfemalar		Analitik morfemalar		
	Affiks	affiksoid	Fe‘l shakllar	Ot shakllar	Sifat shakllar

1-jadval. Morfemalarning shakliy tasnifi

Morfemik birliklar deyilganida, asosan, affikslar e’tiborga olinadi, biroq ayrim leksik ma’nosi bo‘lmagan yoki gap ichida lug‘aviy ma’nosini yo‘qotgan birliklar ham olimlar tomonidan morfemik maydonga tortilgan. “Tabiatan sistem-struktur hodisa bo‘lgan til va uning morfem qurilishi tasvirida sintetik morfem vositalar qatori analitik morfem vositalar, oraliq, yordamchi vositalar ham o‘z o‘rnini va izohini topishi kerak”<sup>32</sup>. Morfema va morfemika sohalari bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlarning o‘zgarishi ular ostida o‘rganiluvchi birliklarga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. An’anaviy tilshunoslikda morfemalar tasnifida faqat affikslar mazmun va shakl nuqtayi nazaridan guruhlariga bo‘lingan. Biz quyidagi tasnifni tavsiya etishni ma’qul ko‘rdik.

“Morfemalar funksional-semantik xususiyatiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi:

1. Derivatsion morfema;
2. Grammatik morfema.”

Derivatsion morfema so‘zga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qiladi. Yangi so‘z yangi lug‘aviy va grammatik ma’noga ega bo‘ladi”<sup>33</sup>.

Morfemalar vazifasidan tashqari, turli xil tasniflarda ham guruhlariga ajratiladi. Morfemalarning leksemalarning qaysi tomonidan qo‘shilishiga ko‘ra suffiks, prefiks, infiks kabi turlari mavjud<sup>34</sup>.

<sup>31</sup> Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б.19.

<sup>32</sup> Мирзакулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б.14.

<sup>33</sup> Sayfullayeva R. O‘sha asar. – Б. 122.

<sup>34</sup> Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 1985, – Б. 40.

Morfemalar struktur jihatdan ham tasniflanadi. Morfemalarning bunday turlari ilmiy adabiyotlarda turlicha nomlanadi. “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” kitobida sodda va qo‘shma morfema terminlari haqida ma‘lumot beriladi<sup>35</sup>.

Morfemalar shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra tasniflanadi. Morfemada shakl va ma‘no munosabati barqaror. Morfemaning miqdoran cheklanganligi bu munosabatning keng qamrovligidan dalolat beradi<sup>36</sup>.

Demak, morfemalarning vazifasiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarini alohida-alohida yoritish ularni birlashtiruvchi va farqli holatlarini izohlash orqali aniq xulosaga kelish mumkinligini ko‘rsatadi. Morfemalardagi vazifa, shakl, joylashish hamda shakl va ma‘no munosabati ularning alohida mustaqil bir til birligi ekanligidan dalolat beradi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“Morfemika va morfologiya”** deb yuritiladi. Ushbu faslda morfemika hamda morfologiya bo‘limlarining o‘zaro munosabatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Tilshunoslik bo‘limlari til sathlaridagi birliklarni o‘rganuvchi soha ekanligi bir birlikning turli tomonlari alohida-alohida tadqiq qilinishini talab etadi. Shu bois birliklarni tadqiq etuvchi sohalar o‘zaro bir-biri bilan adoqador sanaladi. Masalan, morfologiya va leksikologiyani yaqinligi shundaki, bu ikki bo‘lim so‘zni o‘rganadi. Morfologiya – so‘z haqidagi ta‘limot<sup>37</sup>. Leksikologiyada ham leksik birliklar tadqiq etiladi. Bularning farqli jihati shundaki, morfologiyada so‘zlarning shakliy, leksikologiyada mazmuniy tomoni e‘tiborga olinadi. So‘z atamasi tilning leksik sathiga mansub bo‘lgan birlik uchun ham, morfologik sath birligi uchun ham qo‘llanadi. Leksik sath birligiga nisbatan qo‘llanilganda leksemaga, morfologik sath birligiga nisbatan qo‘llanilganda esa so‘z shakliga teng keladi<sup>38</sup>. Shu o‘rinda til sathlari hamda tilshunoslik bo‘limlari o‘rtasidagi farq ko‘zga tashlanadi. Masalan, morfemik sathga kiruvchi birliklar leksikologiya, morfemika hamda morfologiya bo‘limlarida o‘rganiladi. Demak, morfologiya va morfemika bo‘limlari orasida qandaydir munosabatlar mavjud.

Morfologiya bo‘limida so‘z shakllari, so‘zlarning grammatik ma‘nolari, bu grammatik ma‘nolarni yuzaga chiqaruvchi grammatik shakllar, grammatik kategoriyalar, so‘z turkumlari va so‘zlarni turkumlarga bo‘lish tamoyillari o‘rganiladi. “Grammatik ma‘no sistema sifatida morfologik va sintaktik ma‘nolarni o‘z ichiga oladi. Grammatik ma‘no muayyan moddiy vositalar yordamida ifodalanadi. Ma‘lum grammatik ma‘noni ifodalovchi moddiy vositalar grammatik shakl hisoblanadi”<sup>39</sup>. Mana shu grammatik shakllar ma‘noli qism sifatida morfemikaning tekshirish obyekti sanaladi. Bundan tashqari morfemalarning paradigmatic munosabati morfologiyada grammatik kategoriyalar sifatida tadqiq etiladi.

---

<sup>35</sup> Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 1985, – Б. 78-119.

<sup>36</sup> Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan. 2006. – B. 142.

<sup>37</sup> Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 1985, – Б.57.

<sup>38</sup> Нурмонов А. Шаҳобиддинова Ш, Искандарова Ш, Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги авлод. 2001, – Б.16.

<sup>39</sup> Нурмонов А. Шаҳобиддинова Ш, Искандарова Ш, Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги авлод. 2001, – Б.17.

Ikkinchi bob “**Otning kategorial shakllarini hosil qiluvchi affikslarning semantikasi va uslubiyati**” deb nomlanadi. Ushbu bobda ot turkumi tarkibiga kiruvchi kategorial shakllarning semantik xususiyatlari va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan.

Kategoriya yunoncha “*kategoria*” soʻzidan olingan boʻlib, mulohaza, fikr, belgi kabi maʼnolarni bildiradi. Ular voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarni aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalardir<sup>40</sup>. Har qanday fanda kategoriyalar soni koʻp, ammo hech qachon cheksiz boʻlmaydi. Tilshunoslikda lisoniy kategoriyalardan birmuncha aniqlik va oʻrganilganlikni faqat morfologik kategoriyalarda koʻrish mumkin. Buning sababi komparativist va yosh grammatiklarning morfologik struktura tadqiqiga va har bir morfologik shakllar (shuningdek, shakllar sirasi, paradigmasi sifatida morfologik kategoriyalar), ularning tarixiy taraqqiyoti masalalariga katta eʼtibor bilan qaraganlari va ularni ancha mufassal tadqiq etganliklari bilan bogʻliq. Buning natijasi oʻlaroq, fanimizda deyarli barcha tillar boʻyicha morfologik kategoriyalarning chegaralari, ichki paradigmalari, paradigmatic aloqalari nisbatan yaxshi oʻrganilgan<sup>41</sup>. Biz ham ot turkumidagi affikslarga grammatik nuqtayi nazardan eʼtibor qaratib, sistema asosida tadqiq etishga kirishganmiz.

Ikkinchi bobning birinchi fasli “**Kelishiklar semantikasi va uslubiyati**” deb yuritiladi. Ushbu faslda kelishik shakllarning umumiy sema ostida birlashishi va xususiy maʼnolari lisoniy dalillar orqali izohlangan.

Kelishiklar funksional tabiatga egaligi bilan tilda yashaydi. Soʻzlarning sintagmatik munosabatga kirishuvi tufayli boshqa birliklarni shakllantiruvchilik xususiyati ham koʻzga tashlanadi. Kelishiklarning funksional va shakllantiruvchilik xususiyatidan tashqari, bu paradigmaga kiruvchi shakllarning semantik tomondan oʻziga xos tabiati mavjud. Kelishik shakllarining semantik tomoni yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan<sup>42</sup>. Mazkur tadqiqotda bir mazmuniy maydonga kiruvchi kelishik shakllari tahlilga tortilgan holda, ularning uslubiy xususiyatlariga ham eʼtibor qaratilgan.

<b>Kelishik nomi</b>	<b>Bosh kelishik</b>	<b>Qaratqich kelishigi</b>	<b>Tushum kelishigi</b>	<b>Joʻnalish kelishigi</b>	<b>Oʻrin-payt kelishigi</b>	<b>Chiqish kelishigi</b>
Lokal maʼno				+	+	+
Temporal maʼno				+	+	+
Vosita maʼnosi					+	+
Fikr mavzusi			+			+
Sabab maʼnosi				+		+
Partonomik maʼno			+			+

2-jadval. Semantik jihatdan birlashuvchi kelishik shakllari

<sup>40</sup> OʻzME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.

<sup>41</sup> Неъматов Х., Менглиев Б., Ботирова А. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. – Toshkent, 2020. – Б.43.

<sup>42</sup> Қодиров З. Ўзбек тилида келишиклар семантикаси: Филол. фан. ном. ...дисс. – Самарқанд. 1993.

Mazkur jadvalda bir mazmuniy maydonda birlasha oluvchi kelishik shakllari keltirilgan. Bundan tashqari har bir kelishik shakli o'ziga xos semantik xususiyatga ham ega.

Evaz ma'nosi faqatgina jo'nalish kelishigi shaklida kuzatiladi. Masalan:

*Fabrikaning yo'lidan*

*Ro'molcha topib oldim.*

*Topib oldi demanglar,*

**Mehnatga sotib oldim.** (Qo'shiqdan)

O'rin-payt kelishigi shakli **tengsizlik** ma'nosini anglatishi mumkin.

Masalan: **Go'zallikda tunganmas buloq,**

*Shamolda o'ynaydi shalola,*

*Bahor yurar ko'chib tog'ma-tog',*

*Qo'llarida lola payola.* (H.Olimjon)

Chiqish kelishigi bir predmetni boshqa bir narsadan hosil qilish ma'nosini anglatishi mumkin.

Masalan: *Ko'z yoshidan, dil toshidan qurilgan haykal,*

*Mag'rur turar, mag'rur boqar; hech biron mahal,*

*Na odamdan, na zamondan qo'rqmas asti u.*

*G'azabini yutib o'lgan qullar dasti bu.* (U.Nosir)

Kelishik shakllarining uslubiy xususiyatlari ham mavjud. Qaratqich va tushum kelishik shakllari so'zlashuv uslubida deyarli farqlanmaydi. Ikkisiga ham – ni shakli ishlatiladi. Masalan, og'zaki nutqda hech kim aynan **ukamning kitobi** deb talaffuz qilmaydi, aksincha **ukamni kitobi** deya talaffuz qiladi. Ayrim hududlarda tushum kelishigi so'zlashuvda so'z qaysi undosh bilan tugasa, shu undosh bilan boshlangan holda talaffuz qilinadi. Masalan, **oshni – oshshi, gapni – gappi** kabi.

Farg'ona shevasida qaratqich kelishigi shakli **-di, -i** shakllarida ishlatiladi. Masalan, **ukamdi kitobi, ukami kitobi** kabi.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining adabiy tildagi ko'rinishi –ga shaklidir. Barcha nutq uslublarida bu kelishik qo'shimchasining belgisi tarzda ishlatilishi me'yor sanaladi. Faqatgina she'riyatda bo'g'inlar sonini moslashtirish, turoqlar miqdorini bir xillashtirish uchun belgisiz tarzda qo'llanishi mumkin. Masalan,

*Manov bizning pahlavonlar ko'krak kerib-*

**Maydon** kirsar, falakni ham yiqarin ayt. (U.Azim)

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi Xorazm shevasida –a, -na tarzida qo'llanadi. She'riyatda ham xuddi shunday shakllarda uchraydi. Masalan,

**Bolama** o'xshaydi, ovozing sani. (Qo'shiqdan)

**Bolam** so'zi tarkibidagi –a shakli jo'nalish kelishigi qo'shimchasi hisoblanadi. Bolamga o'xshaydi tarzida qo'llanganda, ekpressivlik, poetik ohang mavjud bo'lmaydi. Jo'nalish kelishigining **-na** shaklida ham xuddi shunday holatni kuzatish mumkin. Masalan,

*Boqdim ko'zina-qoshina,*

*O'xshatdim humo qushina,*

*Mani hijron otashina*

*Yoqqan yor, kimnin yorisan?* (O.Umar)

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Egalik affikslari semantikasi va uslubiyati**” deb yuritiladi. Ushbu faslda egalik affikslarining o‘ziga xos semantik va uslubiy jihatlari tahlil qilingan.

Birinchi shaxs egalik qo‘shimchasi boshqa egalik affikslaridan bo‘yoqdorligi, subyektiv bahoning yaqqol ko‘rinishi bilan ajralib turadi.

*Ey do‘stim, davlating, imkoning bo‘lsa,*

*Tulporing choparga maydoning bo‘lsa,*

*Eng avval otangning qadrini bilgin.*

*Eng avval onangga yaxshilik qilg‘il.* (A.Qayum)

Undalma tarkibida birinchi shaxs egalik qo‘shimchasi tinglovchining so‘zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma‘nolarini ifodalaydi.

Ikkinchi shaxs egalik affikslari qarashlilik ma‘nosidan tashqari, qarashli emaslik ma‘nosini anglatishi mumkin. Og‘zaki nutqda ayrim o‘rinlarda bunday holatni kuzatish mumkin. Masalan, *bizning farzandimiz* jumlasida o‘rnida *farzandingga qara. Ustozimiz kelyapti* o‘rnida *ustozing kelyapti* birikmasi ishlatiladi. *Ustozing, farzanding* leksemalaridagi egalik affikslari birinchi shaxs ko‘plikka qarashlilik ma‘nosini yo‘qotgan. Ikkinchi shaxsga qarashlilik ma‘nosi hosil bo‘lgan. Lekin qarashlilik ma‘nosi ostida kesatq, mensimaslik kabi salbiy ma‘nolar ham mavjud.

“*Ilhomning kitobi*” birikuvida egalik affiksining uch xil xususiy grammatik ma‘nosi yuzaga chiqadi. “Ilhom yozgan kitob”, “Ilhomga qarashli kitob”, “Ilhom haqidagi kitob” kabi ma‘nolarni anglatadi”<sup>43</sup>. Egalik affikslarining bunday ma‘nolari matn bilan bog‘liq sanaladi. Nutq vaziyati, so‘zlovchi maqsadi orqali qanday ma‘noda ishlatilishini anglab olish mumkin.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “**Son kategoriyasining semantik va uslubiy xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bu faslda –lar shaklining semantik va uslubiy jihatlari yoritilgan.

Otda ziddiyatli munosabatda bo‘lgan birlik va ko‘plik ma‘nosi hamda bu ma‘noni ifodalovchi shakl sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi<sup>44</sup>. Son kategoriyasi tadqiqi A.G‘ulomov, A.Hojiyev, Sh.Shahobiddinova, Y.Zulfiyev kabi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari turli xil masalalarning oydinlashishida qimmatli manba ekanligini ta‘kidlash zarur<sup>45</sup>. Son kategoriyasining shakliy ifodasi sifatida –lar shakli va nol shakl inobatga olingan, biroq nol shakl masalasida tilshunoslarning fikrlari turlicha. Nol shakl masalasida A.Hojiyevning fikrlari bu masalaning aniqlashishiga katta yordam beradi. “Bu muammoni hal etishda quyidagi ikki hodisaga asoslangan holda ish ko‘rish ijobiy, to‘g‘ri xulosaga kelish imkonini beradi:

1) til birliklarida ifoda va ma‘no (mazmun) masalasi;

<sup>43</sup> Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan. 2009, – B. 172.

<sup>44</sup> Замонавий ўзбек тили: Морфология. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008, – Б. 210.

<sup>45</sup> Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Т. 1944; Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (саккизинчи мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. – №5. – Б. 26-33; Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. Фил.фан.ном.дисс – Самарканд. 1993., Зулфиёв. Я. –лар аффиксининг сўз таркибиде қўлланиш хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972, № 5. – Б. 67-69; Зулфиёв.Я. Жамлик категориясининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975, № 3. – Б. 46-50.

2) nol morfemaning faqat soʻz shaklida, morfologik birlikda mavjudligini tan olish, aniqrogʻi, nol shakl mavjudligini tan olish masalasi”<sup>46</sup>.

Olimning fikrlaridan shuni anglash mumkinki, nol morfema va nol shaklni qorishtirib yubormaslik zarur. Nol morfema atamasi va tushunchasi mavjud emas, nol shakl esa morfologik birlik sifatida mavjud.

**-lar** shaklining semantik xususiyatlari haqida fikr yuritilganda atamaning nomlanishiga ham eʼtibor qaratish zarur. –lar shakliy tomoni boʻlsa, koʻplik deya atalish uning semantikasi bilan bogʻliq. Bu shaklning koʻplikni ifodalashida ham semantik noziklik sezilib turadi. Yaʼni barchasida koʻplik maʼnosi ifodalansa-da, bu maʼnolar bir-biridan farq qiladi.

**-lar** shakli, odatda, noaniq miqdorni ifodalaydi. Aniq miqdorni ifodalash son turkumiga kiruvchi leksemalar orqali sodir boʻladi. **-lar** shakli ot turkumiga kiruvchi soʻzlar tarkibida kelib koʻplik maʼnosini ifodalaydi. Masalan,

*Odamlar, odamlar*, uni olqishlang,

Qarang, u naqadar epchil va oʻktam.

Biz-chi, ey baʼzi koʻzi ochiqlar,

Eplab yurolmaymiz katta yoʻlda ham. (A.Oripov)

Ushbu misoldagi odamlar soʻzida koʻplik maʼnosi mavjud va koʻplik noaniq miqdorni ifodalagan.

**-lar** shaklining koʻplik ifodalashida koʻplik maʼnosiga qoʻshimcha ravishda qandaydir yondosh maʼnolar hamroh boʻlishi mumkin. Bunda asosiy maʼno koʻplik, boshqa maʼnolar ikkilamchi sanaladi.

Koʻplik shakli oʻxshatish maʼnosini ifodaydi. Bunda koʻplik shakli atoqli otlar tarkibida keladi. Masalan,

*Meni bir oʻy qiynaydi yomon,*

*Yurak yana oʻynaydi yomon.*

*Toshkentga qiz berma Margʻilon –*

*Kumushlar yoʻq, Zaynablar omon.* (M.Yusuf)

Yuqoridagi sheʼriy misrada Zaynablar va Kumushlar soʻzlarida oʻxshatish va koʻplik maʼnolari mavjud. Oʻxshatish maʼnosining mavjudligi shundaki, bir nechta Zaynab yoki Kumush ismli qizlar emas, taqdiri va goʻzalligi asardagi qahramonlarga oʻxshash zamondosh qizlar ekanligida anglash mumkin. Koʻplik maʼnosi esa bir nechta qizlar haqida fikr yuritayotganligidan anglashiladi. Bunday oʻxshatish maʼnosining koʻplik maʼnosi bilan hamroh holda kelishi, odatda, badiiy uslubda mavjudligini kuzatish mumkin.

Soʻzlashuv uslubida –lar shakli koʻplik maʼnosi bilan hamroh holda birgalikda anglash maʼnosini ham ifodalashini uchratish mumkin. Masalan, Rustamlarnikiga boramiz, Dostonlar tashrif buyurishdi gaplaridagi atoqli otlarda Rustam va Doston ismli bolalarning koʻpligini emas, ular bilan yonidagi sheriklar tushuniladi. Bu misollardan anglash mumkinki birga anglash maʼnosi birlamchi, koʻplik maʼnosi ikkilamchi sanaladi. Turdosh otlar tarkibida qelganda ham ushbu holatni kuzatish mumkin. Bunda –lar shakli shaxs semasiga ega boʻlgan leksemalarga qoʻshiladi.

---

<sup>46</sup> Ҳожи́ев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назармй масалалари.– Тошкент: Фан. 2010, – Б. 51.

Masalan, xolamlarning xonadoni, tog‘amlarning hovlisi, ukamlarning farzandlari kabi misollar orqali bu ma’nolarni anglash mumkin. Bu ma’nolar –lar shaklining kategorial xususiyatlaridan sanaladi.

-lar shakliga nutq uslublari tomonidan yondashilmagan. Odatdab bu shakl uslubiy betaraf, neytral sanaladi. Barcha nutq uslublari erkin qo‘llana oladi. Sababi ko‘plik ma’nosini ifodalovchi vositalar ko‘p emas. Lekin nutq uslublarda –lar shakli turlicha qo‘llanishi mumkin.

Rasmiy uslubda **–lar** shaklining kategorial ma’nosi yuzaga chiqadi. Bu uslubda uning nokategorial ma’noda ishlatish cheklangan. Rasmiy uslubda bu affiks, asosan, fe’l turkumiga oid bo‘lgan so‘zlar tarkibida uchraydi. Masalan, *Majlisda qatnashdilar: A.Rustamov, R.Qo‘chqorovlar*. Bu misolda –lar shakli sof ko‘plikni ifodalab kelgan.

Rasmiy uslubning yozma shakli ma’lum qoliplardan iboratligi sabab –lar shaklining faol tarzda qo‘llanmaydi.

Rasmiy uslubning og‘zaki shaklida **–lar** shakli undalmalar tarkibida qatnashadi. Masalan, *Hurmatli anjuman ishtirokchilari, kengash a’zolari* misollarida **–lar** shaklining ko‘plik ma’nosini anglatganligini ko‘rish mumkin.

Ilmiy uslub rasmiy uslubdan imkoniyatlarining kengligi bilan farq qiladi. Ilmiy uslubda fanlar va kasblarning ko‘pligi bois so‘z, so‘z shakllarini ishlatish doirasi erkinroq sanaladi. Ko‘plik shakli ham ancha erkin ishlatiladi. Masalan, *Tilshunoslikning so‘z yasalihi bo‘limida, birinchidan, yangi leksik birliklarning qanday hosil qilinishi, ikkinchidan, mavjud yasalmalarining qanday paydo bo‘lganligi tekshiriladi*. (Hozirgi o‘zbek tili darsligi) **Birlik** va **yasalmalar** so‘zlarida ko‘plik ma’nosi mavjudligini anglash mumkin.

So‘zlashuv, publisistik va badiiy uslublarda **–lar** shakli erkin qo‘llanadi.

-lar shakli ko‘plik ma’nosida hududlardagi jonli so‘zlashuv uslubida turlicha tarzda qo‘llanishi mumkin. Toshkent shevasida bu shakl –lik shaklida talaffuz qilinadi. Masalan,

- *Yaxshi bolam. O‘zing yaxshimisan, yaxshi yuribsanmi, oying, singling yaxshimi?*

- *Shukur, rahmat. Hammaligi yaxshi, salom devorishdi, kelishadi.*

Ushbu misolda qo‘llangan **hammaligi** so‘z shakli hammalari so‘zining so‘zlashuv uslubidagi ko‘rinishi hisoblanadi.

Samarqand shevasida ayrim o‘rinlarda –lar shaklining –ar tarzida ishlatilishiga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, *Sizlarni aziz hayotingiz menga kerak, vatanimizga kerak. Asranglar o‘zlarizingzni. Bizar o‘z zaminimizda jangni oboryapmiz. Ular kelgindilar*. (Saraosiyo voqealari. 2000 yil. Islom Karimov nutqi.)

Yuqorida bayon etilgan fikrlar va misollar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, grammatik son kategoriyasi o‘zbek tilida miqdor ma’nosini anglatadi va bu ma’nolar aynan bir xil noaniq miqdorni ifodalamaydi. Matn mazmuni va –lar shakli qo‘shilayotgan so‘zning ma’nosidan kelib chiqib, birga anglash, o‘xshatish kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Bu ma’nolar ko‘plik ma’nosi bilan hamroh holda yuzaga chiqadi.

-lar shaklining nutq uslublarida va ma'lum hududlarda turlicha qo'llanishini misollar orqali kuzatdik.

Uchinchi bob **“Otning nokategorial shakllarini hosil qiluvchi affikslarining uslubiyati va semantikasi”** deb nomlanadi. Ushbu bobda ot turkumi tarkibiga kiruvchi nokategorial shakllarining uslubiy va semantik xususiyatlari tahlil etilgan.

Uchinchi bobning birinchi fasli **“Ot turkumidagi derivatsion morfemalar tasnifi va ularning semantik-stilistik xususiyatlari”** deb atalib, unda ot turkumidagi morfemalar semantik jihatdan guruhlariga bo'lingan, har bir morfemaning ma'noviy xususiyatlari, ayrim affikslarning uslubiy jihatlari tahlil etiladi.

Ot turkumidagi so'z yasovchi affikslarni shu turkumga xos leksemalarning semalari asosida turli xil guruhlariga ajratish mumkin. Shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy otlari, faoliyat-jarayon otlari, mavhum otlar so'z yasovchi qo'shimcha orqali yasalish xususiyatiga ega.

Shaxs oti yasovchi morfemalarni ham o'z ichida shaxslarning semantik xususiyati va shaxs otlarining nimaga asosan nomlanishidan kelib chiqib, turlarga ajratish mumkin. Bu ma'noviy guruhlar quyidagilardan iborat:

- I. Qarindoshlikni ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfemalar.
- II. Kasb-hunarni ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfemalar.
- III. Qarindoshlikni ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfemalar
- IV. Kasb-hunarni ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfemalar
- V. Biror joyga mansublikni ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfema
- VI. Shaxsga aloqador kishi ma'nosini ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfema
- VII. Narsa-hodisani doimiy kuzatuvchi, mutolaa qiluvchi shaxs ma'nosini ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfema
- VIII. Asosdan anglashilgan hodisaga e'tiqod qiluvchi, biror narsaga me'yorida ortiq berilgan ma'nosini ifodalovchi shaxs oti yasovchi morfema
- IX. Asosdan anglashilgan narsaga ega bo'lgan kishi ma'nosini bildiruvchi shaxs oti yasovchi morfema
- X. Asosdan anglashilgan narsani iste'mol qiluvchi ma'nosini ifodalovchi shaxs oti yasovchi
